



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 NURATDINOVA ILMIRA MURATBAYEVNA**
Inson huquqlarini ta'minlashda qonun ustuvorligining ahamiyati
- 14 AMINOV DALERJON ALISHER O'G'LI**
Norma ijodkorligi tushunchasi va uning huquq tizimidagi o'rni
- 20 ГУЛЯМОВ ФИРУЗ РАВШАНОВИЧ**
Совершенствование антикоррупционной экспертизы проектов для принятия законов прямого действия
- 32 ПАЛАЧЕВА МАДИНА БАХТИЁР КИЗИ**
Актуальные проблемы государственной политики в сфере законодательных гарантий прав человека
- 40 БУРХОНОВ ШОХРУХБЕК ШУХРАТБЕК УГЛИ**
Особенности и отличительные черты правовой культуры на современном этапе развития
-
- 46 ASHUROV DILSHOD RUSTAMOVICH**
Yangi O'zbekistonning nufuzi yuksalishida yangi notariatning o'rni
- 51 YUSUPOV SHERZOD ALISHEROVICH**
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi
- 59 NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**
Fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan konstitutsiyaviy sudlov organiga murojaat etishning nazariy va qiyosiy-huquqiy tahlili
- 67 АЗИМОВА НИЛУФАР ПУЛАТЖАНОВНА**
Совершенствование правового механизма оценки эффективности деятельности органов государственной власти в Узбекистане
- 77 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Ommaviy axborot vositalari tomonidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda ayrim xorijiy davlatlar tajribasi
- 85 PARPIXO'JAYEV NUSRATULLO NIG'MATULLO O'G'LI**
Xalq deputatlari kengashlari qarorlarini qabul qilish ochiqligini ta'minlashning huquqiy masalalari

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 93 KOCHKINOVA HOLIDAXON MAKSU DALI KIZI**
Особенности оценки эффективности органов местного самоуправления
- 101 NASRETDINOVA OLTINOY PO'LATOVNA**
Davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar
- 107 SALAYDINOV UMID MUHIDDIN O'G'LI**
Prokuratura organlari va vakillik organlarining o'zaro munosabatlari bo'yicha xalqaro tajribaning tahlili
- 112 QOSHJANOVA DARIXA SMETOVNA**
Ma'muriy organlarning qarorlari ustidan shikoyat qilish tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari
- 120 ATADZHANOV TIMUR ATABAEBICH**
Критерии оценки деятельности партийных групп представительных органов государственной власти на местах

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 129 QO'CHQOROV ABBOSJON BAHROMJON O'G'LI**
Muallifning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarning huquqiy maqomi: O'zbekiston va xorij misolida
- 135 RASULOV ASLIDDIN NURIDDINJON UGLI**
Вопросы либерализации деятельности СМИ в условиях развития Республики Узбекистан
- 141 SOBITXONOV JOXONGIR ZUNNURXON Y'GLI**
Ислом банклари ва улар томонидан кўрсатиладиган хизматларнинг ўзига хос жиҳатлари
- 151 UTAYEVA MOHIPARI SHAXRIYOROVNA**
Raqamli bozorda ustun (monopol) mavqeni suiiste'mol qilish muammolari: xorijiy tajriba
- 158 NAEEM ALLAH RAKHA**
Governance of digital economy

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI.
XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 163 NORBOYEV JO'RABEK ERKIN O'G'LI**
Fuqarolik sudlarida nizolarni hal qilishda qonuniy vakillik: maqomi, asoslari va tartibi
- 170 XOLIQOV SHOHRUX IKROMALI O'G'LI**
Xorijiy davlatlarda oilaviy mediatsiya institutining qiyosiy huquqiy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 178 **ABDURAYIMOV SARDORJON QAHRAMON O'G'LI**
Shaxsning aybdorlik masalasini hal qilmasdan
jinoyat ishini tugatish tartibi
- 183 **TILLAYEV DO'STMUHAMMAD NE'MATJON O'G'LI**
Jazo tayinlashning umumiy asoslari: tahlil va taklif
- 190 **DJUMABAYEVA GULNAZA DJANABAYEVNA**
Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligida jinoyatchi
shaxsining umumiy tavsifi
- 195 **МАМАДЖАНОВА САБИНА УЛУГБЕК КИЗИ**
Ответственность за stalking в некоторых
зарубежных странах
- 204 **СУЛТОНОВА ЛОБАР МАМАРАЙИМ КИЗИ**
Институт освобождения несовершеннолетних
от уголовной ответственности или наказания
в англосаксонской правовой семье

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 213 **МУСУРМАНОВ ИСКАНДАР УБАЙДУЛЛАЕВИЧ**
Некоторые правовые вопросы применения
блокчейн-технологий в международной торговле
- 226 **АБДУЖАББОРОВА ФАРЗОНА**
Проблемы миграции Европы в современных
условиях

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 233 **SHAXRIYOROV HAMIDULLA SHUXRAT O'G'LI**
Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka
tortish masalalari bo'yicha amaldagi qonunchilik
muammolari
- 241 **ХАМРАЕВА НОДИРА ГАНДЖАБАЙ КИЗИ**
Некоторые аспекты пенализации уголовных
наказаний за коррупционные преступления
юридических лиц

UDC: 343.352.4

KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKKA TORTISH MASALALARI BO‘YICHA AMALDAGI QONUNCHILIK MUAMMOLARI

Shaxriyrov Hamidulla Shuxrat o‘g‘li,
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
e-mail: shaxriyrovhamidulla@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1051-6601

Annotatsiya. Zamonaviy tendensiyalar jamiyat vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishiga olib keladi. Buning natijasida esa, vaqt o‘tgani sayin jinoyatlarning yangi turlari paydo bo‘lishi, sodir etilish usullari o‘zgarishi tabiiy hol sanaladi. Mazkur holatni inobatga olgan holda, har bir davlat jinoyat qonunchiligini takomillashtirib, zamon talablariga moslashtirib borishi lozim bo‘ladi. Fikrimiz isboti sifatida, amaldagi Jinoyat kodeksiga mazkur Kodeks qabul qilinganidan buyon to hozirgi kunga qadar sakson marotabadan ortiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligini keltirishimiz mumkin. Lekin hozirgi kunda ham qonunchilikda ayrim muammolar uchrab turadi. Jumladan, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lidagi tajribasini o‘rganish va ularning eng samaralisini qonunchilikka tatbiq qilish va boshqalar. Mazkur maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari bo‘yicha amaldagi qonunchilik muammolari, korrupsiyaga oid jinoyatlarning boshqa jinoyatlardan farqli jihatlari, jinoyat tarkibini aniqlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ushbu turdagi jinoyatlar haqida xalqaro hujjatlar va xalqaro standartlarda o‘rnatilgan normalar tahlil qilingan. Bundan tashqari korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari bo‘yicha qonunchilikda mavjud muammolarni bartaraf etish uchun xalqaro standartlarni qonunchilikka implementatsiya qilish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, xalqaro standart, korrupsiyaviy jinoyatlar, javobgarlik, pora olish, pora berish, hokimiyatni suiiste‘mol qilish.

ПРОБЛЕМЫ ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПО ВОПРОСАМ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА КОРРУПЦИОННЫЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Шахриёров Хамидулла Шухрат угли,
магистрант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Современные тенденции приводят к изменению социальных отношений между представителями общества. В результате этого, естественно, что с течением времени появляются новые виды преступлений, меняются способы их совершения. Учитывая это обстоятельство, каждое государство должно совершенствовать и адаптировать уголовное законодательство к современным требованиям. В качестве доказательства можно привести тот факт, что в действующий Уголовный кодекс с момента его принятия и по настоящее время более восьмидесяти раз вносились изменения и дополнения. Однако и в настоящее время в законодательстве имеются некоторые проблемы. В частности, создание эффективных механизмов, направленных на предупреждение коррупции, изучение опыта развитых стран по противодействию коррупции и внедрение наиболее эффективных из них в законодательство

и т. д. В данной статье проанализированы проблемы действующего законодательства по вопросам ответственности за коррупционные преступления, отличительные черты преступлений, связанных с коррупцией от других преступлений, трудности, возникающие при определении состава преступления, нормы, установленные международными документами и международными стандартами об этих видах преступлений. Кроме того, проанализированы вопросы имплементации в законодательство международных стандартов для устранения существующих проблем в законодательстве по вопросам ответственности за преступления, связанные с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, международный стандарт, коррупционные преступления, ответственность, взяточничество, подкуп, злоупотребление властью.

PROBLEMS OF THE CURRENT LEGISLATION ON ACCOUNTABILITY FOR CORRUPTION CRIMES

Shakhriyurov Hamidulla Shukhrat ugli,
Master's Student at Tashkent State
University of Law

Abstract. Modern trends lead to a change in social relations between representatives of society. As a result of this, as time passes, the emergence of new types of crimes, changes in the methods of committing them are considered natural. Taking this situation into account, each state will have to improve the criminal legislation and adapt it to the modern requirements. As proof of our opinion, we can say that since the adoption of this code into the current criminal code, more than eighty amendments and additions have been introduced to the present day. But even now there are some problems in the legislation. In particular, to create effective mechanisms aimed at preventing corruption, to study the experience of developed countries in the fight against corruption, and to introduce the most effective of them into legislation, and so on. This article analyzes the problems of the current legislation on liability for corruption crimes, the differences between corruption crimes and other crimes, the difficulties in determining the content of the crime, international documents on this type of crime and the norms established by international standards. In addition, the issues of international standards for the implementation of the legislation were analyzed in order to eliminate the existing problems in the legislation on liability for corruption-related crimes.

Keywords: corruption, international standard, corruption crimes, responsibility, getting money, giving money, abuse of power.

Kirish

Bizga ma'lumki, xalqaro miqyosda hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri bu – korrupsiyadir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan. So'nggi yillarda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish yanada jadal tus oldi. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev aytganidek: "Korrupsiya bilan hech qachon maqsadimizga erisha olmaymiz" [1].

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va ularning oldini olish borasida bosqichma-bosqich samarali islohotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasi muayyan darajada o'zgardi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so'mlik moddiy zararining 71 foizi yoki 355 mlrd

soʻmi aybdorlardan tergov davomida undirilgan boʻlsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bogʻliq boʻlgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan [2].

Sh. Mirziyoyev Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangan ilk kunlardan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish borasida bir qator ishlarni amalga oshirish kerakligini taʼkidlab oʻtdi, jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish lozimligini belgilab berdi [3].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishi maqsadida bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi OʻRQ-419-sonli Qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 3-moddasida korrupsiya tushunchasiga taʼrif berilgan. Unga koʻra, korrupsiya – shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir [4].

Mazkur Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari ham belgilab berilgan boʻlib, ular quyidagilardan iborat:

- aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oʻz vaqtida aniqlash, ularga chek qoʻyish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini taʼminlash kiradi.

Material va metodlar

Mazkur maqola tahliliy tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini oʻz ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish masalalarida amaldagi qonunchilik muammolari tahlil qilingan va ushbu muammolarni bartaraf qilish uchun xalqaro tajribani qonunchiligimizga imlimentatsiya qilish boʻyicha amaliy takliflarni berish bilan yakunlangan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy tahlil qilish analiz, sintez, induksiya, deduksiya va statistik maʼlumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Oʻzbekiston Respublikasida olib borilayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash, sud-huquq islohotlari, jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid tahlillar tadqiqot ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqot natijalari

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish boʻyicha bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarida amaldagi qonunchilikda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonunda “korrupsiya” atamasining mazmunini ochib beruvchi eng muhim elementlar xalqaro standartlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan boʻlsa-da, amaldagi jinoyat qonunchiligimizda mavjud boʻlgan korrupsiyaviy jinoyatlarga oid moddalarning dispozitsiyalari ushbu taʼrif davlatning bugungi kundagi korrupsiyaga qarshi kurashishga oid siyosati talablariga toʻliq javob bermaydi. Korrupsiya jinoyati tarkibining asosiy elementlaridan biri moddiy, shuningdek nomoddiy boʻlmagan foydani yoki pul bilan bogʻliq boʻlmagan foydani ham oʻz ichiga oladi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qonunchiligimizda mavjud kamchiliklar bartaraf etilmasligi oqibatida afsuski hali korrupsiyaning keskin kamayishiga erishganimiz yoʻq. Masalan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonunning 27-moddasida “Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar boʻladi” deb koʻrsatilgan boʻlsa-da [4], Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasida

“Jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar” deb ko‘rsatib o‘tilgan, lekin Jinoyat kodeksida Yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida aniq ko‘rsatmalar belgilanmagan [7].

Poraxo‘rlik jinoyatlari tarkibining zaruriy elementlaridan biri – bu jinoyatlarning uchinchi shaxslar manfaatlarini yo‘lida sodir etilishidir. Bunda jinoyatni kriminalizatsiya qilishda faqat mansabdor shaxs uchun emas, balki boshqa jismoniy yoki yuridik shaxs uchun ham moddiy yoki moddiy bo‘lmagan qimmatliklarni olishini ham anglatadi, lekin jinoyat qonunchiligimiz uchinchi shaxslar manfaatini qamrab olmaydi. Xususan, Jinoyat kodeksining 210-moddasida “mansabdor shaxsining ... moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo‘lishi” uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Mazkur modda dispozitsiyasida mansabdor shaxsning faqat o‘zi uchungina moddiy manfaat olishini qamrab olganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Oliy Sud Plenumining “poraxo‘rlik holatlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida ham poraxo‘rlikni uchinchi shaxslar foydasiga jinoiy javobgarlikka tortish masalasiga tegishli emasligi ta‘kidlangan [5]. Vaholanki, korrupsiya tushunchasiga nisbatan yuqorida keltirilgan ta‘rifda muayyan harakatlarni “shaxsiy manfaatlar” bilan bir qatorda “o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab” bajarish ham nazarda tutilgan. E‘tibor qaratish lozimki, “uning foydasini ko‘zlab pora olinayotgan shaxslar” deganda nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxs ham tushunilmog‘i lozim.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 211-moddasi mazmuniga muvofiq, shaxsning mansabdor shaxsga muayyan harakatni mazkur pora beruvchi shaxsning o‘z manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga moddiy qimmatliklar berishi yoki uni mulkiy manfaatdor etishi pora berish deb topiladi. Ushbu modda ta‘rifidan ko‘rishimiz mumkinki, qonun chiqaruvchi poraxo‘rlik jinoyatlarining pora berayotgan shaxs, balki o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilishi mumkinligini e‘tiborga olmagani.

Bunday muammolarni Jinoyat kodeksining poraxo‘rlik jinoyatlarini nazarda tutuvchi 192⁹-, 192¹⁰- hamda 213-, 214-moddalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi poraxo‘rlikni uchinchi shaxslar manfaatlarini foydasiga kriminalizatsiya qilmaydi, faqat mansabdor shaxsning o‘zi porani olishi yoki aksincha bunday shaxsga pora berishini jinoyat deb tan oladi. Bu esa korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishda bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining “Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida pora olganlik uchun jinoiy javobgarlikka faqat davlat, kooperativ, jamoat va boshqa korxonalar, muassasa va tashkilotlarda mansabdorlik vazifasini doimiy yoki vaqtinchalik bajarayotgan xodimlar tortilishi mumkinligi belgilangan [5]. Ushbu qoidadan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, poraxo‘rlik jinoyati uchinchi shaxslar manfaatini ko‘zlab sodir qilingan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortishni qamrab olmagan.

Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Konvensiyasi, Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Yevropa Kengashi Konvensiyasi va BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasida poraga va‘da berish, porani taklif qilish va uni qabul qilish tugallangan jinoyat sifatida keltirilgan, lekin Jinoyat kodeksimizda faqatgina pora olish, pora berish va vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilanib, poraga va‘da berish, porani taklif qilish va taklifni qabul qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan.

Shuningdek, chet el mansabdor shaxsi yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxsi pora olish jinoyati subyekti hisoblanadi [6]. Rossiya, Qozog‘iston va boshqa davlatlar jinoyat qonunchiligida xorijiy mansabdor shaxslar pora olish subyekti sifatida berilgan.

Amaldagi Jinoyat kodeksida bunday shaxslar tomonidan jinoyat sodir etganida qilmishni kvalifikatsiya qilishda muammolar mavjud.

Korrupsiyaga oid navbatdagi muhim element poraga va‘da qilish, taklif qilish yoki uni qabul qilish predmeti Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Konvensiyasi, Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Yevropa Kengashi Konvensiyasi va BMTning korrupsiyaga

qarshi Konvensiyasida tugallangan jinoyat sifatida keltirilgan. O'zbekiston Jinoyat kodeksida mazkur jinoyat kriminalizatsiyasi masalasi haligacha hal etilmagan, ya'ni porani va'da qilish, uni taklif qilish va taklifni qabul qilish uchun javobgarlikka tortish yoki tortmaslik masalasi hal qilinmagan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining O'zbekiston Respublikasi uchun tavsiyalarida ham pora so'rash, pora taklif qilish, porani olish haqidagi taklifni qabul qilish yoki pora berish haqida va'da berish kabi harakatlar ham JKning 210-, 211-moddalar dispozitsiyasi bilan qamrab olinib, tamom bo'lgan mustaqil jinoyat sifatida e'tirof etilishi hamda ular uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi tavsiya etilgan [8].

Korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka tortishda jinoyat qonunchiligimizda ayrim tushunchalarning, xususan, "jiddiy ziyon" tushunchasining aniq ta'rifi berilmaganligi javobgarlikka tortish jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Jinoyat kodeksining 205-moddasida hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, jinoiy javobgarlik belgilangan [7]. Mazkur moddaning tahlili unda korrupsiya omilining mavjudligini ko'rsatsa ham ushbu modda kompozitsiyasining majburiy elementlaridan biri bo'lgan "jiddiy ziyon" tushunchasining ta'rifi yo'qligidir. Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi monitoring davomida ushbu atama ostida nima nazarda tutilayotganligi, huquq-tartibot idoralari uning mavjudligini qanday aniqlayotganligi xususidagi savolga hech qanday javob ola olmadilar. Mazkur masalaning to'liq ochib berilmaganligi sababli bugungi kunda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning boshqa tarkibiy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, qilmishni davlat sektori va xususiy sektorda xizmatchining og'dirib olinishini nazarda tutuvchi JKning 192¹⁰-, 213- va 214-moddalari bilan kvalifikatsiya qilish ma'muriy preyuditsiyaning mavjudligini, ya'ni shaxsning muqaddam mos ravishda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61¹-modda (Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish), 193¹-modda (Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish), 193²-modda (Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi) kabi moddalari bilan javobgarlikka tortilgan bo'lishini talab qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tavsiyalarida mazkur holatga ham to'xtalib o'tilib, mavjud qonunchilik, ya'ni bunday qilmishlarning ma'muriy javobgarlikka oid qonunlar bilan qamrab olinishi xalqaro standartlarga zid ekanligi, ushbu qilmishlar jinoyat sifatida e'tirof etilishi lozimligi ko'rsatiladi [8]. Demak, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda nazarda tutilgan korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni to'g'ridan to'g'ri Jinoyat kodeksiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning yangi turlari bir qator xalqaro standartlarda, shuningdek ko'plab xorijiy mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida o'z aksini topgan bo'lsa-da, milliy jinoyat qonunchiligimizda bu kabi normalar mavjud emas [9]. Xususan, noqonuniy boylik ortirish, mavqeni suiiste'mol qilish kabi jinoyatlar shular jumlasidandir. Quyida ularni milliy jinoyat qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Noqonuniy boyish jinoyati, asosan, korrupsiyaviy jinoyatlar keng tarqalgan davlatlar tomonidan kriminalizatsiya qilingan bo'lib, korrupsiya darajasi past bo'lgan mamlakatlarning aksariyati tomonidan mazkur turdagi qilmishlar uchun javobgarlik belgilanmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Noqonuniy boyishning dispozitsiyasini belgilashga oid xalqaro standartlar va xorij tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, mazkur jinoyatni kriminalizatsiya qilishda uning beshta eng asosiy elementlarini qamrab olish lozimligi haqida xulosaga kelamiz. Bular: manfaatdor shaxslar, manfaat ko'riladigan davr, qasd, boylikning sezilarli ravishda oshishi hamda mazkur boylik qonuniy manbasining isbotlanmaganligi.

Noqonuniy boylik ortirish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normani milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilishda ushbu jinoyatdan manfaatdor shaxs sifatida faqat mansabdor shaxslarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi, mazkur jinoyat yuzasidan isbotlash majburiyati mansabdor shaxsning zimmasida bo'lib, uning qarindoshlari yoki boshqa yaqin tanishlariga bunday majburiyatni yuklash ushbu shaxslarning huquq va manfaatlari buzilishi xavfini yuzaga keltiradi.

Javobgarlikdan ozod bo'lish. JKning bir necha moddalarida (192⁹-, 211-, 212-, 213-moddalar) poraxo'rlik bilan bog'liq qilmishni sodir etgan shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o'ttiz sutka ichida o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod etiladi. Bu muddat xalqaro standartlar bo'yicha muammoli holatdir. 30 sutkalik davrni amalda qaysi nuqtadan hisoblash kerakligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Shuningdek, "Chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam berish" elementlari Jinoyat kodeksida ham, Oliy Sud Plenumi qarorida ham aniq bayon etilmagan va shu sababli amaliyotda ixtiyoriy qo'llanilishi mumkin.

Xulosalar

Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha bir qator Qonun va qonunosti hujjatlar qabul qilinishiga qaramasdan korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarida amaldagi qonunchilikda ayrim muammolar mavjudligini ko'rib chiqdik. Korrupsiyaga qarshi xalqaro standartlar milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi, shu jumladan amaldagi jinoyat qonunchiligi bilan qamrab olinmagan korrupsiyaviy qilmishlar kriminalizatsiya qilinishi, korrupsiyaviy qilmishlarning aniq doirasi belgilanishi kerak. Yuqorida ko'rib chiqqan amaldagi qonunchilikdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni beramiz:

birinchidan, amaldagi jinoyat qonunchiligimizda mavjud bo'lgan korrupsiyaviy jinoyatlarga oid moddalarning dispozitsiyalarida nazarda tutilgan ta'rif davlatning bugungi kundagi korrupsiyaga qarshi kurashishga oid siyosati talablariga to'liq javob bermaganligi sababli sohaga oid xalqaro standartlarni inobatga olgan holda Jinoyat kodeksining yuqorida qayd etilgan moddalariga chet el nodavlat tashkiloti, chet el davlat tashkiloti yoki xalqaro ommaviy tashkilotlar mansabdor shaxslari va xizmatchilarining pora olishi yoki bunday toifadagi shaxslarga nisbatan pora berish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida faqatgina pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilish uchun javobgarlik belgilanib, poraga va'da berish, porani taklif qilish va taklifni qabul qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Shu sababli Jinoyat kodeksiga poraga va'da berish, porani taklif qilish va taklifni qabul qilganlik uchun ham javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoni xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilishiga zamin yaratadi va korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

uchinchidan, amaldagi Jinoyat kodeksiga uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmaslik uchun javobgarlik masalasini kiritish maqsadga muvofiq boladi.

Shundan kelib chiqib Jinoyat kodeksining 210-moddasi 1-qismi dispozitsiyasini quyidagi tahrirda ishlab chiqishni taklif qilamiz.

210-modda. Pora olish

Pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi, *chet el mansabdor shaxsi yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxsining* o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan

harakatni pora berayotgan yoki *uchinchi shaxsning* manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, o'zi uchun yoki *boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun moddiy yoki nomoddiy afzalliklar* olishga yoxud mulkiy yoki nomulkiy manfaatdor bo'lishga qaratilgan harakat.

Jinoyat kodeksining 211-moddasi 1-qismi dispozitsiyasini esa quyidagi tahrirda ishlab chiqishni taklif qilamiz.

211-modda. Pora berish

Pora berish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga yoki *chet el mansabdor shaxsi yoki xalqaro tashkilot mansabdor shaxsiga* mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan yoki *uchinchi shaxsning* manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy yoki *nomoddiy* afzalliklar berish yoxud uni yoki *boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsni* mulkiy yoki nomulkiy manfaatdor etishga *qaratilgan harakat*.

to'rtinchidan, jinoyat qonunchiligimizda "jiddiy ziyon" tushunchasining aniq ta'rifi berilmaganligi uchun javobgarlikka tortish jarayonida qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligi sababli "jiddiy ziyon" tushunchasi batafsil yoritib berilsa yoki mazkur tushuncha Jinoyat kodeksidan chiqarib tashlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi rasmiy veb-sayti. URL: <https://www.customs.uz/uz/news/view/2954/>.
2. URL: <https://kun.uz/30443880/>.
3. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi [Strategy of action on five priority directions of development of the Republic of Uzbekistan] <https://lex.uz/docs/3107036/>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan on combating corruption] // URL: <https://lex.uz/docs/3088008/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining "Poraxo'rlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori [Decision of the plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan "On judicial practice on bribery cases"] <https://lex.uz/docs/-1449106/>.
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi [United Nations Convention Against Corruption] // URL: <https://lex.uz/docs/-1461329/>.
7. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan] <https://lex.uz/docs/-111453/>;
8. Antikorrupsionnie reformi v Uzbekistane (4-y raund monitoringa v ramkax Stambulskogo plana deystviy po borbe s korrupsiyey) [Anti-corruption reforms in Uzbekistan (4th round of monitoring under the Istanbul Anti-Corruption Action Plan)]. URL: https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf/.
9. Konvensiya OON protiv korrupsii [United Nations Convention Against Corruption]. URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/corruption.shtml/.
10. Korrupsiyaga qarshi kurash tarmog'i Istanbul Harakatlar Rejasi (IHR) doirasida Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarining 2016–2019-yillarda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi islohotlari Monitoringi [Anti-corruption network monitoring the reforms of the Eastern European and Central Asian countries in the field of anti-corruption in 2016–2019 within the framework of the Istanbul Action Plan (IHR)]. www.oecd.org/corruption/acn/.

11. Abdurasulov Q.R. Korrupsiya jinoyatchiligining umumiy tavsifi, sabablari va oldini olish [General description, causes and Prevention of corruption crime]. ProAcademy, № 4, 2018.
12. Bussell J. (2015) Greed, Corruption, and the Modern State Essays in Political Economy. Edward Elgar, London, pp. 22–32.
13. Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik [Corruption. Law. Responsibility]. Ed. M.X. Rustambayev. Tashkent, TDYI nashriyoti, 2011, pp. 50-51.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov
Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.06.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 15,24 b.t. Adadi: 100.